



NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

D.M.Boydadayev

4.1-band. 4.1-band . bir hafta muddatda buyruqning 1-ilovasidagi namunaviy nizom asosida institutning ustavini ishlab chiqib, o'rnatilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun.

Muddat: 2025-yil 18-avgust

D.M.Boydadayev

4.2-band . O'n kun muddatda institutning guvohnomasini o'rnatilgan tartibda qayta rasmiylashtirish va davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun

Muddat: 2025-yil 21-avgust

D.M.Boydadayev

4.3-band. O'n kun muddatda institutning muhri, shtampi va blankalari o'zgartirilishini ta'minlash uchun

Muddat: 2025-yil 21-avgust

M.Sh.Jo'rayev

A.A.Abdunazarov

M.R.Qodirxonov

4.4-band . Xalqaro ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim yo'nalishlarida dars beradigan professor-o'qituvchilar hamda yangidan tashkil etiladigan pedagogika oliy maktablariga boshqaruv xodimlarini tanlab olishni buyruqning 3-ilovasidagi nizom talablariga qat'iy rioya etgan holda amalga oshirish uchun

Muddat: 2025-yil 19-avgust

M.Sh.Jo'rayev

D.M.Boydadayev

A.A.Abdunazarov

4.5-band . Xalqaro ta'lim dasturlari tashkil etiladigan yo'nalishlardagi pedagogika oliy maktablari tashkil etilishi munosabati bilan institutning tashkiliy tuzilmasini har yili yangi o'quv yili boshlangunga qadar yangidan tasdiqlash uchun vazirlikka taqdim etib borish uchun

Muddat: 2027-yil 6-sentabr

A.T.Majidov

M.R.Qodirxonov

A.A.ISOKBOYEV

D.M.Boydadayev

A.A.Abdunazarov

4.6-band . Institut faoliyatini nizomga muvofiq yuritilishini doimiy nazoratga olish uchun



Hujjat kodi: **TD81113488**

A.A.Abdunazarov

Buyruq loyihasini tayyorlash va tasdiqlashga kiritish uchun

Muddat: 2025-yil 15-avgust

№22-08/121
12 Avgust 2025

B.E.Xusanov
Ректор





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I**

**Pedagogika oliy ta’lim muassasalarining nizomi va tashkiliy tuzilmasini
tasdiqlash hamda prorektorlar kengashlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish
to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son Farmonida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Pedagogika sohasida kadrlar tayyorlaydigan 12 ta oliy ta’lim tashkilotlari Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimiga o‘tkazilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Pedagogika oliy ta’lim tashkiloti to‘g‘risida namunaviy nizom 1-ilovaga muvofiq;

Pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarining tashkiliy tuzilmalari 2.1–2.12-ilovalarga muvofiq;

Pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarining xalqaro ta’lim dasturlari joriy etilgan ta’lim yo‘nalishlarida dars beradigan professor-o‘qituvchilar hamda pedagogika oliy maktablari boshqaruv xodimlarni tanlab olish tartibi to‘g‘risida nizom 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilansinki, pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarining tashkiliy tuzilmalari xalqaro ta’lim dasturlari tashkil etiladigan yo‘nalishlardagi pedagogika oliy maktablari tashkil etilishi munosabati bilan har yili yangi o‘quv yili boshlangunga qadar qayta ko‘rib chiqiladi va yangidan tasdiqlanadi.

4. Pedagogika oliy ta’lim tashkilotlari rektorlari:

bir hafta muddatda mazkur buyruqning 1-ilovasidagi namunaviy nizom asosida pedagogika oliy ta’lim tashkilotining ustavini ishlab chiqib, o‘rnatilgan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin;

o‘n kun muddatda pedagogika oliy ta’lim tashkilotining guvohnomasini o‘rnatilgan tartibda qayta rasmiylashtirsin va davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin;

o'n kun muddatda pedagogika oliy ta'lim tashkilotining muhri, shtampi va blankalari o'zgartirilishini ta'minlasin;

xalqaro ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim yo'nalishlarida dars beradigan professor-o'qituvchilar hamda yangidan tashkil etiladigan pedagogika oliy maktablariga boshqaruv xodimlarini tanlab olishni mazkur buyruqning 3-ilovasidagi nizom talablariga qat'iy rioya etgan holda amalga oshirsin;

xalqaro ta'lim dasturlari tashkil etiladigan yo'nalishlardagi pedagogika oliy maktablari tashkil etilishi munosabati bilan pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarining tashkiliy tuzilmalarini har yili yangi o'quv yili boshlangunga qadar yangidan tasdiqlash uchun vazirlikka taqdim etib borsin;

oliy ta'lim tashkiloti faoliyatini tashkilot nizomiga muvofiq yuritilishini doimiy nazoratga olsin.

5. Pedagogik ta'limni rivojlantirish bo'yicha respublika kengashi (keyingi o'rinlarda - Respublika kengashi) faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida quyidagi faoliyat yo'nalishlari bo'yicha prorektorlar kengashlari tuzilsin, bunda:

a) Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektorlar kengashi tarkibi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va uning zimmasiga oliy ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, tizimdagi muammolar yechimiga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish hamda Respublika kengashiga kiritish vazifalari yuklatilsin;

b) Akademik faoliyat bo'yicha prorektorlar kengashi tarkibi 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va uning zimmasiga oliy ta'lim tashkilotlarida xalqaro ta'lim dasturlarini bosqichma-bosqich joriy etish, xalqaro tajribalar asosida talabalar bilimni baholashning yangi tizimlarini yo'lga qo'yish hamda innovatsion ta'lim texnologiyalarini pedagogik ta'lim amaliyotiga tatbiq etish, tizimdagi muammolar yechimi yuzasidan takliflarni ishlab chiqish hamda Respublika kengashiga kiritish vazifalari yuklatilsin;

d) Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektorlar kengashi tarkibi 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va uning zimmasiga oliy ta'lim tashkilotlaridagi professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish, tizimdagi muammolar yechimi bo'yicha takliflarni ishlab chiqish hamda Respublika kengashiga kiritish vazifalari yuklatilsin;

e) Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektorlar kengashi tarkibi 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va uning zimmasiga oliy ta'lim tashkilotlariga davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar hamda to'lov-kontrakt mablag'laridan samarali foydalanish, daromadlarni oshirish, xarajatlarni optimallashtirish hamda boshqa moliyaviy masalalarning yechimi bo'yicha takliflarni ishlab chiqish hamda Respublika kengashiga kiritish vazifalari yuklatilsin;

f) Xalqaro hamkorlik va transformatsiya masalalari bo'yicha prorektorlar kengashi tarkibi 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va uning zimmasiga oliy ta'lim dasturlarini xalqaro tajriba asosida transformatsiya qilish, tizimdagi muammolar

yechimi bo'yicha takliflarni ishlab chiqish hamda Respublika kengashiga kiritish vazifalari yuklatilsin.

6. Protokol bo'limi (F.Keldibekov) bir kun muddatda ushbu buyruqni tegishli boshqarma va bo'limlar, Vazirlik tasarrufidagi pedagogika oliy ta'lim tashkilotlariga yetkazsin.

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari S.Radjabov zimmasiga yuklansin.

Vazir



E. Karimova

Toshkent sh.,
2025-yil " 5 " -avgust,
273-son